

## QURILISH MAHSULITLARINI ISHLAB CHIQRARISH SANOAT VA ULARNI TASHISHDA AVTOMOBILLARNI O'RNI

*Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich*

*Jizzax politexnika instituti assistant*

*Sodiqov Yusuf Mamasodiqovich*

*Sharof Rashidov tumani 1- son kasb hunar maktabi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda qurilish sanoatida amalga oshiriladigan ishla va yutuqlar, qurilish sanoatini o'sib borishi, ajratiladigan mablag'lar hamda qurilish mahsulitlarini yekazib berish bilan bogliq muammolarni amalga oshiriladigan to'g'risida keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** qurilish, mahsulot, sanoat, energiya resurslari, tovar, tashish, avtomobil, yuk.

Qurilish sohasi – milliy iqtisodiyotimizning “drayver”laridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizning qurilish sohasida keskin oshish yuzaga keldi. Qurilish sohasini kengaytirish aholi sonining oshishi, aholi farovonligi va xarid qobiliyatining oshishi kabi omillar bilan bevosita bog'liq. O'z navbatida, qurilish sohasining rivojlanishi qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishiga va infratuzilmani yaxshilashga yordam beradi.

Chet davlatlarning, xususan Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarning amaliyoti shuni ko'rsatadiki, qurilish sohasining o'sishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham, ijtimoiy sohani ham rivojlanishini ta'minlab, butun iqtisodiyot uchun multiplikativ ta'sir etadi. Joriy yilda 54 ming oilani uy-joy bilan ta'minlash mo'ljallanmoqda. Qurilish sohasining o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatning barcha hududlarida uy-joy qurilishining keng ko'lamli dasturini e'lon qildi. Umumiy qiymati 1,1 milliard AQSh dollar miqdorida moliyalashtirish natijasida, pandemiyadan keyingi davrda iqtisodiy rivojlanishga qo'shimcha turtki beradi.

Tahlil natijalari ko'rsatadiki, O'zbekistonning qurilish sohasiga 1,1 mlrd. dollar miqdorida qo'shimcha investitsiya kiritilishi yalpi ichki mahsulot va iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatdi.

Qurilish sohasida yakuniy talabning oshishiga iqtisodiyotning birinchi reaksiyasi ushbu sohada ishlab chiqarish hajmining ortishi bo'ladi. Ishlab chiqarish hajmining ortishi esa, qurilish materiallari sanoati, energiya resurslari va boshqa qazib olish sohalaridagi oraliq tovarlarga qo'shimcha talab tug'diradi. Xususan: sanoat

mahsulotlari ishlab chiqarishning real hajmi qo'shimcha 2,3 foizga o'sadi; xizmat ko'rsatish sohasi 3,9% foizga o'sadi; chakana savdo aylanmasi +1,1% foizga o'sadi; qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi + 0,1% foizga o'sadi.


Sanoat ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sishi tog'-kon sanoati ishlab chiqarishi 2,1%, qurilish materiallari ishlab chiqarish 9,2%, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish 5,6%, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish 5,5%, metallurgiya sanoati ishlab chiqarishi 3,2%, elektr jihozlari ishlab chiqarish 3,1% va boshqa sanoat tarmoqlari hajmining oshishi bilan bog'liq.

Xizmat ko'rsatish sohasida ijara va lizing xizmatlari 4,6%, boshqaruv, biznes va boshqa xizmatlar 4,2%, ishga joylashtirish xizmatlari 3,8%, mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish bilan bog'liq xizmatlar 3,8% va boshqa turdagi xizmatlar hajmining ortganligi bilan bog'liq.

Qurilish sohasidagi keng miqyosli ishlab chiqarish hajmining oshishi pirovard natijada yalpi ichki mahsulot hajmining qo'shimcha 1,0%dan 1,5% oralig'ida o'sishiga olib keladi va yangi ish o'rinlari yaratishni rag'batlantiradi hamda aholi farovonligini oshiradi.

Ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarini o'z joylariga etkazib berish ham alohida o'rin egallaydi. Qurilishda ishlatiladigan xom ashyo materiallari masalan yog'och, temir, qum, grunt, keramzit, shag'al va xarsang toshlar bundan tashqari tayyor mahsulotlar sement, qorishma va beton qorishmalari, bitum, yoqilg'i, suv, temirbeton, g'isht va ayrim qurilish maxsulotlarini mashina yoki mexanizmlarida tashish hamda ko'chirishda temir yo'l, suv va havo transporti yo'llaridan, avtomobil va maxsus tirkama va yarim tirkama aravachali traktor yoki avomobillardan foydalaniladi. Grunt, shag'al, qum, keramzit, g'isht va qorishmalarni tashishda maxsus kuzovi ag'dariladigan avomobillar ishlatiladi. Oquvchan, kukunsimon va suyuq mahsulotlari suv, qorishma va beton qorishmalari, yonilg'imoylash va bitum maxsulotlari maxsus yopiq idishi bo'lgan avomashinalarda tashiladi. Tayyor temir va temirbeton mahsulotlari panel, ferma, balka, kolonna, bloklarni maxsus yarim tirkama va tirkama avomashinalarda tashiladi. Salmoqli qurilish mashinalarini ayniqsa zanjirli yurish uskunasi ega bo'lganlari ko'chirishda maxsus yarim tirkama va tirkamali traktor yoki avomobillardan foydalaniladi.

Boshqarish, qo'l kuchi, mexanik, pnevmatik yoki gidravlik bo'lishi mumkin. Yuklarni transport mashinalariga ortish va tushirish kranlar yordamida amalga oshiriladi.



Qurilish va mashinalarini ko'chirishda suv va temir yo'l vositalaridan hamda maxsus transport vositalari traylerlardan foydalaniladi. Traylerlar, katta o'lchamli, salmoqli massaga ega bo'lgan yuk va mashinalarni tashish ko'chirish uchun xizmat qiladi. Ular, yuk ko'tarish qobiliyatiga qarab, ikki, uch, to'rt va olti o'qli maxsus arava bo'lib, g'ildirakli yuqori quvvatga ega bo'lgan traktor yoki avtomobillarga tirkalgan bo'ladi. Odatda, aravaning old tomoni biroz ko'tarilgan bo'lib, uning ostiga buraladigan, rezina g'ildiraklari bo'lgan bir yoki ikki o'qli ko'priklarni o'rnatilgan bo'ladi. Avtomobil tirkamalarni orqa qismiga ham bir yoki ikki o'qli rezina g'ildirakli ko'priklarni o'rnatilgan bo'ladi. Bir cho'mishli ekskavatorlar va buldozerlar tirkamalarga chiqish uchun grunt dan ko'tarma yo'laklar hosil qilib, shu yo'lakdan tirkamalarga o'zlarini chiqadi. Ayrim traylerlarda yukni ortish va tushirish uchun maxsus chig'irlar o'rnatilgan bo'ladi. Aravani yurishdan to'xtatish yoki turgan joyda ushlab turuvchi moslamani va undagi elektr yoritishlarni boshqarish, uni tortuvchi traktor yoki avtomobilning sistemasidan foydalaniladi. Tirkamalarga chiqarilgan texnikaning chek o'lchamlari yo'l qoidalarining talablariga javob beradigan darajaga keltirilib, texnika qo'zg'almas qilib aravaga bog'langandan so'ng ko'chirilishi mumkin bo'ladi.

Shularni inobatga olib qurilish sohasida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni o'z vaqtida va sifatli tashish ishlarini amalga oshirish mamlakatimiz qurilish sanoatini rivojlanishiga hissa qo'shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy majlisga navbatdagi Murojaatnoma ma'ruzasi. Toshkent, Xalq 25.01.2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2017-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'risida"gi F-4849-sonli Farmoyishi. 14.02.2017.
3. Hamidov A., Madumarova X. va b. Qurilish materiallari fanidan «Qurilish materiallari asosiy xossalari» mavzusini interfaol strategiyalardan foydalanib o'tiladigan mashg'ulotning metodik ishlanmasi. Namangan, NamMPI, 2006.
4. Ismoiljon o'g'li, S. A., & Boliqul o'g, M. U. B. (2022). DVIGATEL KONSTRUKTSIYASI VA ISHCHI JARAYONLARINI BOSHQARISHNI MUKAMMALLASHTIRISH. Scientific Impulse, 1(4), 536-542.
5. Ismoiljon o'g'li, S. A., Axmatjonovich, Q. B., & Abdurauf o'g'li, X. A. (2023). ISHLATILGAN GAZLARNI ZARARLILIGINI KAMAYTIRISHDA NEYTRALIZATOR VA KATALIZATORLARNI O'RNINI VA AHAMYATINI. Scientific Impulse, 1(7), 765-770.
6. Qosimov, B. A. (2023, January). SIQILGAN GAZDA HARAKATLANADIGAN YENGIL AVTOMOBILLARNING YONILG'ININING

TIZIMGA QO ‘YILGAN EKOLOGIK TALABLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 1, pp. 747-751).

7. Boliquil o‘g, M. U. B., & Ismoiljon o‘g‘li, S. A. (2023). JAMOAT TRANSPORTLARI YO ‘NALISHLARIDA HARAKAT MIQDORI VA TARKIBINI TADQIQ QILISH. *Scientific Impulse*, 1(7), 793-798.

8. Sultanov , A. I. o‘g‘li, & Sultanova, D. U. qizi. (2023). BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA SHAKLLANTIRILADIGAN KASBIY COMPETENTSYALAR VA ULARNING TURLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(15), 480–482.

9. Sultanov , A. I. o‘g‘li, & Sultanova , D. U. qizi. (2023). YONILG‘I TA‘MINOT TIZIMIDAGI NOSOZLIKLAR VA INJEKTORNING ISHDAN CHIQUISH SABABLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(18), 302–304.

10. Sultanov, A., Fazliddin, X., & Karimov, V. (2023). QISHLOQ SHAROITIDA QUYOSH PANELI YORDAMIDA NASOSNI ISHGA TUSHIRISH. *Journal of new century innovations*, 29(4), 103-107.

11. Ziyadulla, Y., Azizbek, S., Fazliddin, X., & Valijon, K. (2023). SQUYOSH PANELI-ENERGIYANI SAQLASH BATTAREYASI SUV NASOSI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022*, 2(19), 120-125.

12. O‘G‘Li, U. I. I., & O‘G‘Li, S. A. I. (2022). Tirbandlik kuzatilayotgan shahar ko ‘chalarida transport oqimining asosiy tavsiflarini o ‘rganish. *Механика и технология, (Спецвыпуск 2)*, 177-188.

13. O‘G, M. U. B. B., & O‘G‘Li, S. A. I. (2022). Avtomobillar harakat xavfsizligiga faol ta’sir qiluvchi ekspluatatsiyaviy ko ‘rsatkichlari. *Механика и технология, (Спецвыпуск 2)*, 123-128.

14. Boliquil o‘g, M. U. B. (2022). li, Sultanov Azizbek Ismoiljon o ‘g ‘li Avtomobillar harakat xavfsizligiga faol ta’sir qiluvchi ekspluatatsiyaviy ko ‘rsatkichlari. *Механика и технология.*

15. Sultanov, A. I., & Xurshid, A. (2024). ICHKI YONUV DVIGATELLARINING QUVVATI VA YOQILG ‘I TEJAMKORLIGINI ORTTIRISH YO ‘LLARINI TAXLIL QILISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(1), 161-166.

16. Ulug‘bek qizi Sultanova, D. (2024). TABIIY GAZDAN FOYDALANISH VA ICHKI YONUV DVIGATELLARIDA CHIQUINDI GAZLARNING ZAXARLILIGINI KAMAYTIRISH. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(2), 535-537.